FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SHARAFUTDINOVA NILUFAR XURSANDOVNA

O'ZBEK TILIDA TEONIMLAR VA ULARNING LINGVOPOETIK TADQIQI

10.00.01 – O'zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Farg'ona – 2024

UO'K:811.512.133'373.2

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)onPhilological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)по филологическим наукам

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019 Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SHARAFUTDINOVA NILUFAR XURSANDOVNA

O‘ZBEK TILIDA TEONIMLAR VA ULARNING LINGVOPOETIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4795 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti www.fdu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ibragimova Ehtiyot Ismailovna** filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Odilov Yorqinjon Rahmonaliyevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Abdurahmonov Shavkatjon Ashurovich filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qo'qon davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.12.2019.Fil.10.00.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "*16*" *noyabr* soat *11⁰⁰* dagi majlisda bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Telefon: (99873) 244-57-82.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (*412* raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "*29*" *oktabr* kuni tarqatildi.
(2024-yil "*29*" *oktabr* dagi *46* raqamli reyestr bayonnomasi).

S.M.Muminov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

M.Iskandarova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

<center>**KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**</center>

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida keyingi yillarda lingvistikaning boshqa fanlar bilan integratsiyasi negizida yangi yoʻnalishlar vujudga kela boshladi. Xususan, lingvistikaning inson omilining din bilan munosabatini oʻrganuvchi yangi dinshunoslik bilan bogʻliq – teolingvistika sohasi rivojlana boshladi. Olamni anglash, idrok etish va ifodalashda teolingvistika sohasiga oid teonimlar va nutqiy faoliyat jarayonida ulardan foydalanish inson lingvomadaniy faoliyati bilan bogʻliq boʻlib, ushbu jihatdan tadqiqotchilar eʼtiborini tortib kelmoqda hamda sohaga doir tadqiqotlar uchun obyekt vazifasini bajarmoqda.

Dunyo tilshunosligida soʻz leksik-semantik kategoriya sifatida oʻrganilib kelingan. Inson ongida borliqdagi barcha narsa-predmetlarning obraz – qiyofalari, tilda esa nomlari mavjud deb qaralgan. Soʻz keng maʼnoda leksema sifatida tadqiq etilgan, tushunchaning yashash shakli tarzida talqin qilingan. Teonimlar ham soʻz sifatida muayyan bir xalqning lisoniy-madaniy olamini ifodalaydi. Bu leksikon orqali xalqning dunyoqarash omillari va darajasi namoyon boʻladi, ruhiy-maʼnaviy dunyosi qanday va qay asoslarga koʻra shakllanganligi yuzaga chiqadi. Inson ongi, tajribalari, aql-zakovati orqali idrok qilinadigan, anglashiladigan teonimik obyekt nomi va sifatlarini tahlil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilishi bilan uning jamiyatdagi nufuzi ortdi, tilni tadqiq etishga boʻlgan qiziqish kuchaydi. Bu tilni har tomonlama ilmiy oʻrganish keng yoʻlga qoʻyildi. Ayniqsa, hozirgi Yangi Oʻzbekiston sharoitida muhtaram prezidentimiz har sohada uchinchi Renessansga asos solishga chorlamoqda. Xususan, tilimizning qoʻllanish doirasini har tomonlama kengaytirish "oʻzbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy maʼlumotlarni oʻzida jamlagan elektron koʻrinishdagi oʻzbek tili milliy korpusini yaratish choralarini koʻrish"[1] muhim ekanligi alohida taʼkidlanmoqda. Oʻzbek tili boʻyicha olib borilayotgan tadqiqotlar doirasini yanada kengaytirish, tilning barcha sohadagi oʻrnini aniqlash kabi dolzarb masalalar kun tartibiga qoʻyildi. Shunday ishlar doirasida tilning lugʻat tarkibida oʻzining mustahkam oʻrniga ega boʻlgan eʼtiqodiy tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarni ham oʻrganish imkoniyati vujudga keldi, mavzu jihatdan mifologik va diniy maydonga doir leksika, uning tabiati, mohiyati va maʼno asoslarini tadqiq etishga boʻlgan eʼtibor ortdi. "Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi Farmonda "Davlat tilining xalqaro miqyosdagi oʻrni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash"[2] alohida taʼkidlab koʻrsatilgan. Oʻzbek tili lugʻat tarkibida mavjud boʻlgan diniy-mifologik leksik qatlamni ham uzual, ham figural maʼnoda oʻrganish, tadqiq etish bu tilning boyligini, fikr uzatish imkoniyatlarining kengligini, shuningdek, jahon tillari sirasidagi oʻrnini belgilash imkonini beradi. Bu mazkur ishning muhim nazariy va amaliy ahamiyatini koʻrsatish bilan birga, uning dolzarbligi va zaruratini ham belgilaydi.

---

[1]Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-6084-sonli Farmoni.

[2]Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, №218 (2448).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari; 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori hamda ushbu faoliyat doirasidagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilish darajasi. Miflar va diniy rivoyatlarni mazmun va mohiyat e'tibori bilan anglashga bo'lgan ehtiyoj tufayli, dastlab, ijtimoiy jihatdan o'rganilgan bo'lib, sotsiologlar, faylasuflar o'z nuqtayi nazarlaridan kelib chiqib matnlarda ifodalangan tushunchalarni bayon etganlar. Shu asosda falsafiy qarashlar shakllangan, diniy tushunchalarni ifodalash bo'yicha har bir xalqning o'ziga xos lingvomadaniyati qaror topgan. Yaratguvchi tushunchasini ifodalash ham ayni shu madaniyat negizida vujudga kelgan. Mifologiya va dinshunoslik fanlarida dunyoning qurilishi, ilohiy kashfiyotlar va insoniy bilimlar haqidagi qarashlar tadqiq etilgan, izohlangan, sharhlangan[3]. Keyinchalik, teolingvistika vujudga kelishi bilan diniy-mifologik matnlar mazmuni va uslublari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan[4].

[3]Габинский Г.А. Божественное откровение и человеческое познание. – М.: изд. Политической литературы, 1989; Евсюков В.В. Мифы о мировоздании. – М.: изд.политической литературы, 1986; Тоиров В.Н. Дхаммапада и буддийская литература. – М.: изд. Восточной литературы, 1960; Путилов Б.Н. Предисловие к книге Мифы, предания, сказки хантов и манси. – М.: Наука, 1990; Редер Д.Т. Мифы и легенды древнего двуречия. – М.: Наука, 1965; Кэ Юань. Мифы древнего Китая. – М.: изд.Восточной литературы, 1987; Тойлор Э.Б. Первобытная культура. – М.: изд. политической литературы, 1989.

[4]Михайлова Ю.Н. Религиозная провославная лексика и её судьба. Дисс.канд.филол.наук//www.dissrcatcom; Тимофеев К.А. Религиозная лексика русского языка как выражение христианского мировозрения. –

Turkologiyada turkiy xalqlar miflari, diniy-mifologik qarashlari va shu qarashlar bilan bog'liq bo'lgan udumlar, rituallar, tangrichilik va uning paydo bo'lishi, mohiyati, bular haqidagi tushunchalarning tilda ifodalanishi kabi muammolar olib borilgan tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan[5].

O'zbek adabiyotshunosligi va folklorshunosligida ham mifik rivoyatlar, mifologik obraz – personajlar adabiy-badiiy jihatdan tadqiq etilmoqda. I.Mannopov tomonidan Ahmad Yassaviy hikmatlarining o'ziga xosliklari ko'rsatib berilgan[6]. T.Rahmonovning tadqiqotida mifologik va badiiy tafakkur munosabatlari, mifologik tafakkur badiiy tafakkurning ibtidosi ekanligi, mif va folklorning o'ziga xos jihatlari asoslab berilgan. O.Qayumovning ishida esa o'zbek xalq og'zaki ijodida mifologik personaj – Pari obrazi, M.Ishmuratov tadqiqotida "Avesto"dagi mifologik qatlam o'rganilgan[7].

O'zbek tilshunosligida mifonim va teonimlar xalq ruhining ong va tilda aks etish hodisasi sifatida N.Uluqov, T.Yuldashev, M.Umarxo'jayev, M.Galiyeva, Sh.Sultonova, Sh.Maxmaraimova, Sh.Amonturdiyeva, Sh.Yusupovalar tomonidan tadqiq etilgan[8].

Новосибирск, 2001; Якимов П.А. Религиозная лексика – церковная лексика – Библейская лексика: к вопросу о соотношении понятий//www.cyberleninka.ru; Матей И.К. Провославная лексика в современном русском языке и языковым сознании его носителей. Автореф.дисс.канд.наук. – Воронеж, 2012; Скляревская Г.Н. Словарь провославной церковной культуры. – М., 2007; Петухова М.Е. Функциональные особенности церковной лексики с предетным значением в русском языке. Автореф.дисс.канд.наук // www.dissrcatcom; Гольберг И.М. Религиозно-проповеднический стиль современного литературного языка. Моральные концепты// www.cyberleninka.ru; Крысин Л.П. Религиозно-проповеднический стиль и его место в функционально-стилистической парадигме современного литературного языка // политика. Стилистика. Язык и культура: Памяти Т.Г.Винокур. – М., 1996.

[5]Суяргулов Н.А. Особенности языка и стиля башкирская перевода Корана. Автореф.дисс.....канд.филол.наук. – Уфа, 2004; Серикбаева А.С. Кораническая традиция в казахской литературе. Автореф.дисс.....канд.филол.наук. – М., 2001; Шаряфетдинов Р.Х. Трансформация коранического сюжета об Иосифе Прекрасном в поэме Кул Гали «Кысса-и Йусуф»: «Сказание об Йусуфе». Автореф.дисс.....канд.филол.наук. 2009 // www.cyberleninka.ru; Яхьяева З.Б. Религиозная лексика и фразеология кумыкского языка. Автореф.дисс.....канд.филол.наук // www.dissercat.com/content/religioznaya-leksika-i-frazeologiya-kumykskogo-yazyka; Хафизова З.Р., Абдуллина Г.Р. Религиозная и мифологическая лексика в башкирском языке: к вопросу разграничения. Сборник международной научно-практической конференции «Современные проблемы тюркологии: язык – литература – культура», – М., 2016; Религия кочевников: тенгрианство. https://www.youtube.com/watch?v=XfIw7XbTmqE; Тенгрианство – древнее мировозрение тюрков. https://www.youtube.com/watch?v=zO-gRAfsoO8; Учёный совет (007) Тенгрианство; Суть Тенгрианства. https://www.youtube.com/watch?v=qBxp8bFCpag.; Тенгрианство первоначальная религия тюрков и монголов. https://www.youtube.com/watch?v=ubEoFqEackE; Будущее тенгрианства уже началось. Культпросвет; Имамбек Е.Тенгрианство в современном мире. https://www.youtube.com/watch?v=0RKc0loIANE. Тенгри: второе пришествие//Азия. https://www.youtube.com/watch?v=z5gVJmqAOtg.

[6]Маннопов И. Ўзбек мумтоз адабиётида ҳикматнавислик анъанаси ва тадрижи. Филол.фан.б.фалс.док… дисс.автореф. – Фарғона, 2019.

[7]Раҳмонов Т.А. Қадимги мифлар ўзбек фолклори эпик мотивларининг ўзаги сифатида. Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 1996; Қаюмов О.С. Ўзбек фолклорида пари образи. Филол.фан. номз.дисс...автореф. – Тошкент, 1999; Ишмуратов М.Ж. Авестода мифологик қатлам. Филол.фан.номз.дисс... автореф. – Тошкент, 2001; Қобилов У. Масих тимсолининг мумтоз адабиётдаги бадиий талқини (XII-XV асрлар). Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Самарқанд, 2001; Тўйчиева Г.У. Ислом даври шеъриятида аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол.фан.док...дисс.автореф.– Тошкент, 2018.

[8]Улуқов Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси. Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 1997; Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент: Усмон Носир медиа нашриёти, 2021; Юлдашев Т.К. Навоий ва Бобурнинг ислом фарзларига бағишланган асарларида қўлланган шаръий атамаларнинг лисоний таҳлили. Филол.фан.номз...дисс.автореф. – Тошкент, 2003; Умархўжаев М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016; Султонова Ш. Муқаддас матнларда замон категориясининг лингвомаданий хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Фарғона, 2018; Галиева М. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши. Филол.фан.док.дисс...автореф. – Фарғона,

Yuqorida keltirib oʻtilgan tadqiqotlardan koʻrinib turibdiki, diniy-mifologik planda tilshunoslik va adabiyotshunoslik boʻyicha turli aspektlarda muayyan ishlar olib borilgan boʻlsa-da, oʻzbek tilida uzual va figural mifo-teonimik leksika va ularning stilistikasi yaxlit tadqiqot mavzusi sifatida oʻrganilmagan. Biz ishimizda mana shu muammoni imkon qadar atroflicha ochib berishga harakat qildik.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Fargʻona davlat universiteti tilshunoslik kafedrasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Oʻzbek tili leksikologiyasi masalalari" yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oʻzbek tilidagi uzual va figural teonimlarni tavsiflash, figural teonimlarning tematik va leksik-semantik maydonlarini belgilash va shular asosida ularning stilistik va poetik vazifalarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oʻzbek tilining leksik sathida oʻz va oʻzlashgan teonimlarning faollik darajasini yoritib berish;

uzual va figural teonimlarning nutq uslublariga xoslanishini ochib berish hamda ularning qoʻllanishi ijtimoiy muhit va mavjud nutqiy vaziyatga bogʻliqligini isbotlash;

uzual teonimlar diniy-mifologik tafakkur mahsuli, figural teonimlar esa badiiy-estetik tafakkur mahsuli ekanligini aniqlash, figural teonimlar lingvopoetikasida tavsifiy bayon va taʼrifiy ifodani ochib berish;

teonimlarning murojaat shakli sifatida qoʻllanishi va bunda subyektiv baho ifodasini koʻrsatib berishni tashkil qiladi.

Tadqiqot obyekti sifatida barcha turkiy xalqlar uchun umumiy boʻlgan "Qadimgi hikmatlar"[9], Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy asarlari hamda Alisher Navoiy, Lutfiy, Husayn Boyqaro, Bobur, Munis, Ogahiy, Feruz, Uvaysiy, Komil, Mashrab, Muqimiy, Mirkarim Osim, A.Oripov, Omon Matjon, Dushan Fayziy, Oʻ.Hoshimov, M.Muhammad Doʻst, M.Yusuf asarlarida qoʻllangan uzual va figural teonimlar tanlangan. Shuningdek, teonimlari umumiy boʻlgan qardosh xalqlar adabiyoti materiallaridan, xususan, Ch.Aytmatov va Yunus Oʻgʻuz asarlariga ham murojaat qilingan.

Tadqiqot predmetini uzual va figural teonimlarning lingvopoetik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, struktural-stilistik, lingvopoetik, tavsiflash-taʼriflash, statistik va tasniflash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangligi quyidagilardan iborat:

teonimlarning oʻzlashishi islom dinining kirib kelishi bilan bogʻliqligi, natijada asliy teonimlar faolligi pasayib borishi, fors tilidan oʻzlashgan teonimlarning

---

2019; Махмараимова Ш.Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти. Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Қарши, 2018; Амонтурдиева Ш.Р. Ўзбек диний матнининг функционал-стилистик таҳлили. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Самарқанд, 2020; Ш.Юсупова. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Фарғона, 2021.

[9] Қадимий ҳикматлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986.

tasavvuf adabiyoti bilan aloqadorligi, badiiy adabiyotning xalq tiliga ta'siri aniqlangan;

uzual teonimlar nominal lisoniy ma'nolari bilan omma tilida ham, kitobat tilida ham parallel qo'llanuvchi universal leksik hamda faqat kitobat tilida qo'llanuvchi kitobiy leksik qatlamdan iborat bo'lishi, figural teonimlar esa badiiy nutq uslubiga xoslangan, asosan, mumtoz she'riyat tilida qo'llanuvchi til va nutq birliklari ekanligi aniqlangan;

universal leksik qatlam doirasiga kiruvchi teonimlarning diniy arboblar va omma nutqida qo'llanish darajasining umumiyligi, ular o'zaro farqlanmasligi, mazkur leksik qatlam diniy marosimlarda eng faol qo'llanadigan leksikon bo'lib, so'zlovchi ruhiyatini ifodalashda muhim poetik vazifa bajarishi asoslangan;

figural teonimlar undalma-murojaat shakli sifatida badiiy-estetik ko'chimga asoslanishi va unda subektiv baho ifodalanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

teonimlarning paydo bo'lishi, tarixiy sharoitlarga muvofiq ularning qo'llanish maydonlari va rituallari kengayib borishi, faollik darajasi o'zgarishidagi omillar, diniy-e'tiqodiy qarashlar almashinishi Yaratguvchi tushunchasini ifodalovchi so'zlar mazmuniy guruhida ham aks etishi asoslangan;

uzual teonimlar mifologik, diniy-mifologik tafakkur mahsuli, figural teonimlar badiiy-estetik tafakkur mahsuli ekanligi ochib berilgan;

figural teonimlarning yig'iq va yoyiq turlari ajratilgan, yoyiq turlarning tavsifiy xarakteri va ularda subyektiv baho ifodalanishi, emotsional-ekspressiv xususiyatlari aniqlangan;

tadqiqot davomida chiqarilgan xulosalar tilshunoslikning leksikologiya va leksikografiya sohalari uchun, stilistika, adabiyotshunoslik va poetika sohalari uchun yangi ma'lumotlar bilan to'ldirilishi hamda ushbu fanlar bo'yicha ishchi dastur, qo'llanma va darsliklar yaratishda, ularning yanada mukammallashuvida xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilishi, chiqarilgan xulosalarning tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tipologik, kontekstual va funksional tahlil kabi usullar bilan asoslanishi, ishonchli manbalar hamda lug'atlardan foydalanilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tizimlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili leksik tarkibida teonimlar, o'ziga xos leksik qatlam sifatida ularning til umumleksikasida tutgan o'rni, nutq uslublari va shakliga xoslanishi, stilistik va poetik vazifalari bo'yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan tilshunoslik, stilistika fanlarining keyingi taraqqiyotini belgilashda foydalanish mumkin, shuningdek, tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalar leksikologiya, lug'atshunoslik, stilistika fanlari bo'yicha olib boriladigan izlanish hamda ilmiy yondashuvlar takomiliga xizmat qiladi. Bular tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilida teonimlar va ularning lingvopoetik tavsifi bo'yicha olingan ilmiy natijalaridan:

uzual teonimlar nominal lisoniy ma'nolari bilan omma tilida ham, kitobat tilida ham parallel qo'llanuvchi universal leksik hamda faqat kitobat tilida qo'llanuvchi kitobiy leksik qatlamdan iborat bo'lishi, figural teonimlar esa badiiy nutq uslubiga xoslangan, asosan, mumtoz she'riyat tilida qo'llanuvchi til va nutq birliklari ekanligiga oid nazariy qarashlaridan 2017-2020-yillarga mo'ljallangan №OT-F-1-100 "Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy-madaniy faoliyatining badiiy-ijodiyot vositalari asosida nazariy va amaliy takomillashuvi" nomli fundamental loyihasida imkoniyati cheklangan yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish, badiiy ijodkorligini rivojlantirish, estetik didini oshirish maqsadida foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2023-yil 3-noyabrdagi 04/5506-son ma'lumotnomasi). Natijada imkoniyati cheklangan yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlari, badiiy ijodkorligi oshirilgan;

figural teonimlar undalma-murojaat shakli sifatida badiiy-estetik ko'chimga asoslanishi va unda subyektiv baho ifodalanishiga oid xulosalardan 2018-2020-yillarga mo'ljallangan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi №PZ-20170930223 "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2024-yil 17-oktyabrdagi 04/5958-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tayyorlangan materiallarning tushunarli va esda qoladigan tarzda taqdim etilishi sababli sifati, mazmuni, ta'sirchanligi va ommabopligi sezilarli darajada oshirilgan;

universal leksik qatlam doirasiga kiruvchi teonimlarning diniy arboblar va omma nutqida qo'llanish darajasining umumiyligi, ular o'zaro farqlanmasligi, mazkur leksik qatlam diniy marosimlarda eng faol qo'llanadigan leksikon bo'lib, so'zlovchi ruhiyatini ifodalashda muhim poetik vazifa bajarishiga oid natijalardan 2017-2020-yillarga mo'ljallangan № OT-F-1-100 "Imkoniyati cheklangan bolalar ijtimoiy-madaniy moslashuv tizimini takomillashtirishning ilmiy va uslubiy asoslari" fundamental loyihasida imkoniyati cheklangan yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish, badiiy ijodkorligini rivojlantirish, estetik didini oshirish maqsadida samarali foydalanilgan. (Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi Farg'ona mintaqaviy filialining 2024-yil 4-yanvardagi 01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada imkoniyati cheklangan yoshlarning umuminsoniy xislatlari, ijodkorligi, estetik didi oshirilgan.

Ishning aprobatsiyasi. Ishning ilmiy xulosalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta lug'at-ma'lumot, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, shundan 4 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, har biri ikki fasldan shakllantirilgan uch asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 158 sahifani tashkil etadi.

<h1 style="text-align: center">DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI</h1>

Tadqiqotning birinchi bobi **"O'zbek tilida teonimlar va ularning nominativ asoslari"** deb nomlanib, uning birinchi fasli **"O'zbek tilida teonimlar tavsifi"** deb ataladi.

Teolingvistika termin sifatida "ilk bor belgiyalik tilshunos olim, "teolingvistikaning otasi" Jan-Pyer vann Noppen tomonidan 1981-yilda ilmiy hayotga olib kirilgan"[10]. Teolingvistika so'zining terminologik izohi "til bilan diniy qarashlar va diniy amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganuvchi ilm uchun ishlatiladigan termin" sifatida D.Kristalning "Lingvistika va fonetika lug'ati"da keltiriladi[11].

Teolingvistika yevropalik olimlar tomonidan madaniyatshunoslik, falsafa, sotsiologiya, psixologiya fanlari bilan bog'liqlikda olib borilgan tadqiqotlar tufayli yanada kengayib va chuqurlashib bordi. Endilikda jahon tilshunosligining til va din munosabatlarini o'rganish bo'yicha mundarijasi yanada kengaygan. Soha olimlarining ta'kidlashicha, teolingvistika doirasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda: "diniy markerlangan konseptlar verballashuvi; sakral kitoblardagi matnlarning pretsedentlik va intertekstuallik jihatidan ahamiyati; diniy markerlangan lingvistik birliklarning kognitiv va lingvokulturologik aspektlari; diniy tilning diniy va dunyoviy jamiyatdagi funksiyalari; diniy tilning kommunikativ va diskursiv xususiyatlari; diniy matnlarning janrga ko'ra tasnifi va stilistik xususiyatlari; diniy markerlangan lisoniy birliklarning qiyosiy tadqiqi; muqaddas kitoblardagi zamon ta'limotining lisoniy tadqiqi; diniy omillarning yozma va og'zaki nutqqa ta'siri; turli matnlarda diniy-mifologik ongning aks etishi;

N.Uluqovning ishida diniy matnlar tarkibida qo'llanilgan ekzotik leksikaning tilshunoslik va tarjimashunoslikdagi talqini, tadqiqi hamda lisoniy belgi-xususiyatlari tadqiq etilgan; T.Yuldashev tomonidan Navoiy va Bobur she'riyatidagi shar'iy atamalar, M.Umarxo'jayev lug'atida diniy atamalar sharhlangan, izohlangan; M.Galiyeva tadqiqotida til va din munosabati, borliqning inson ongi, tafakkurida aks etishining diniy tasviriga e'tibor qaratilgan va bu tasvirning tilda aks etishi muammolari yoritilgan; Sh.Sultonova izlanishlarida diniy matnlarda zamon kategoriyasi, keyingi ishlarida diniy frazeologizmlar transformatsiyasi semantik va lingvomadaniy aspektlarda tahlilga tortilgan; Sh.Maxmaraimova teomorf metaforalar tadqiqi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va "O'zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug'at"ini yaratgan; Sh.Amonturdiyeva diniy matnlarning fonetikasi, leksikasi, morfologiya va sintaksisini stilistik aspektda tekshirgan; Sh.Yusupova tomonidan esa diniy matnlarning uslubiy, funksional va lingvopragmatik xususiyatlari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

---

[10]Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.д-ри…дисс. – Фарғона, 2021.

[11]Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари. Филол.фан.б.фалс.д-ри…дисс. – Фарғона, 2021.

O‘zbek adabiyotshunosligida U.Qobilov, Sultonmurod Olim, I.Mannopov, G.To‘ychiyevalar tomonidan diniy ta’limotlarga doir masalalar turli aspektlarda tadqiq etilgan[12].

O‘zbek tilshunosligida teonimlarni belgilash asoslari turlicha ko‘rsatiladi. Jumladan, N.Uluqov shunday yozadi: "Professor E.Begmatov diniy tushuncha va tasavvurlarga, muqaddas dargohlarga, shuningdek, payg‘ambar va avliyolarga berilgan maxsus nomlar teonimlar, deb ko‘rsatadi. "O‘zbek tili jadvallari" nomli qo‘llanmada ham ilohiy kuchlarga qo‘yilgan atoqli otlar teonimlar, deb ko‘rsatilgan. N.Husanov payg‘ambarlar ismlari teonimlarning asosiy bo‘lagini tashkil etishini ko‘rsatadi... Aslida teonim termini "xudo nomlari" degan lug‘aviy ma’noni bildiradi. Bizningcha, teonimlarga Alloh va uning sifatlarini, farishtalarni ifodalovchi otlarni kiritish to‘g‘riroq bo‘ladi"[13].

Haqiqatan ham, terminning lug‘aviy ma’nosi "xudo nomlari" degan tushunchani ifodalaydi. N.Uluqovning fikriga qo‘shilgan holda ta’kidlash mumkinki, teonimlarni belgilash termin ma’nosini chegaralaydi va aniq ifodalaydi: teonimlar Yaratguvchi nomlarini va Uning sifatlarini otlashgan tarzda ifodalovchi atoqli otlardir. Bu doiraga uzual teonimlar kiradi. Shuningdek, Yaratguvchi ma’nosida individual qo‘llanadigan poetik vazifa bajaruvchi nutqiy teonimlar ham mavjud bo‘lib, ular figural teonimlar guruhini tashkil etadi.

Ma’lumki, inson ilk ibtidoiy jamoa sharoitida yig‘imchilik-terimchilik bilan hayot kechirgan. Inson hayotining ta’minotchisi – tabiat, u o‘z qo‘ynidagi alohida olingan har bir narsaning egasi, ya’ni Ega (Владыка)[14]. Demak, u ibodatga loyiq, inson o‘zini ayni shu Ega – ilohiyotning bir qismi deb bilgan va o‘z Egasi bilan birgalikda takomillashib borgan[15]. Turkiylar, dastlab, ana shu Egaga ibodat qilganlar. Tangri so‘zi lug‘aviy birlik sifatida izohlanar ekan, "Древнетюркский словарь"da uning osmon ma’nosi ko‘rsatiladi. Shuningdek, Xudo, Iloh, ilohiy ma’nolari qatorida hokim (amir, sulton), janob ma’nolari ham ko‘rsatib o‘tiladi. Lekin Iloh, ilohiylik ma’nolarining yetakchi ekanligi quyidagi izohlarda ravshanroq ayon bo‘ladi: tangrichi – dindor, ruhoniy, ibodat qiluvchi; tangridaki – osmonda joylashgan, osmoniy; tangridam – ilohiy, ilohiy bilim, xudo qavmidan bo‘lgan bek-hukmdor; tangrikan – ilohiy; tangrikla – xudoga ibodat qilish; tangrilik – xudoga maqbul; tangrilikdagi – ibodatxonada joylashgan[16].

Tangri I.V.Stebleva tomonidan Xudo, deb qayd etiladi. Ko‘rinadiki, Tangri o‘z epitet va funksiyalariga ega bo‘lgan nom – Yaratguvchilik nomi. Bundan shunday to‘xtamga kelish mumkin: tangrichilik – ma’jusiylik emas. Shunga asosan, D.Shokirjon "tangrichilik – ma’jusiylik emas", degan xulosaga keladi[17]. Demak, Tangri qadimlarda shakllangan umumturkiy teonim.

[12]Қобилов У. Масиҳ тимсолининг мумтоз адабиётдаги бадиий талқини (XII-XV асрлар). Филол.фан.номз.дисс.автореф. – Самарқанд, 2001; Султонмурод Олим. Ишқ, ошиқ ва маъшуқ. – Тошкент: Фан, 1992; Маннопов И. Ҳикматнавислик анъанаси. – Тошкент: Qaqnus media, 2019; Тўйчиева Г. Ислом даври шеъриятида аруз тизими ва унинг эволюцион тараққиёти. Филол.фан.док.дисс...автореф. Тошкент, 2018.

[13]Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент: Усмон Носир медиа нашриёти, 2021. – Б. 79.

[14]Религия кочевников: тенгрианство. https://www.youtube.com/watch?v=XfIw7XbTmqE. (Дата обращения 2022, июнь).

[15]Тенгрианство – древнее мировоззрение тюрков. www.youtube.com (Дата обращения 2022, июнь).

[16]Древнетюркский словарь. – М.: Наука, 1969. – С. 544-545.

[17]Религия Тангрианстово – особенности и характеристики. www.youtube.com (Дата обращения 2022, июнь)

Biz oʻrgangan materiallardan kelib chiqadiki, oʻzbek tilida *Ega, Tangri, Koʻk, Bir, Biru Bor, Bayat//Bayot, Ugʻan//Ugʻon* kabi umumturkiy leksikaga doir boʻlgan teonimlar qadimlardan boshlab qoʻllab kelingan. Oʻzbek tilida "oʻz" va "u" olmoshlari Yaratguvchini bevosita atamaydi, Yaratguvchiga ishora qiladi.

Bobning **"Oʻzbek tilida oʻzlashgan teonimlar tavsifi va tasnifi"** deb nomlangan ikkinchi faslida oʻzlashgan teonimlar tadqiq etiladi.

Oʻrta Osiyoga islom dini kirib kelishi munosabati bilan, oʻzbek tiliga arab va fors-tojik tilidan bir qator teonimlar oʻzlashdi. *Alloh, Rab* kabi uzual teonimlar shular jumlasidandir. Bu soʻzlarning oʻzlashishida diniy adabiyotlar va islomiy rituallar asosiy rol oʻynagan. Til lugʻat tarkibidagi eng harakatchan teonimlar sifatida ogʻzaki soʻzlashuv nutqida ham, yozma nutq shaklida ham Alloh soʻzi faol qoʻllana boshlagan. A.Oripovning "Jannatga yoʻl" dramatik dostonida eng faol qoʻllanuvchi oʻzlashgan teonim ham Allohdir. U doston davomida oʻn martadan ortiq ishlatilgan.

Haq soʻzi ham arab tilidan oʻzlashtirilgan. "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"da ham, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati"da ham uning teonimik maʼnosi koʻrsatilmaydi. Keyingi lugʻatda "haq amri", "haq yoʻli" barqaror birikmalari "xudo buyrugʻi", "haq yoʻli tariqi" tarzida izohlanadi. Birinchi izohda haq soʻzi xudo soʻzi bilan almashtirilgan, demak, haq amri bilan, yaʼni Xudo izni bilan amalini topishi anglashiladi. Haq uzual teonimdir.

Xoliq teonimi yozma adabiyotda ikki fonetik variantda qoʻllanadi: Xoliq – Xalloq.

> *– Lekin bunday manzarani his etgani choq,*
> *Nogahoniy qoʻrqinch bilan titrab ketardi.*
> *Osiymanmi? Yaratding-ku meni ham, Xalloq,*
> *Deya tunlar Tangriga jim sukut etardi.*
>
> A.Oripov

Iloh arab tilidan oʻzlashgan teonim. U soʻzlashuv tilida ham, yozma nutqda ham parallel qoʻllanadi.

Oʻzbek tilida tarixan qoʻllab kelingan yana bir teonim *kirdikor* soʻzidir. Bu soʻz ikki jildli "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"da "yomon, yaramas ishlar, qilmish, xatti-harakat" deb izohlanadi, lugʻatning keyingi nashri hisoblangan besh jildligida esa Yaratguvchi maʼnosi ham beriladi[18]. "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati"da[19] "Yaratguvchi", "Xudo" tarzida izohlanadi.

Mumtoz sheʼriyatda hech narsaga ehtiyoji yoʻq, ehtiyojsiz tushunchalarini ifodalash bilan *beniyoz* soʻzi uzual maʼnoda Yaratguvchi nomini anglatib keladi. Teonim sifatida bu soʻz Alisher Navoiy va Mashrab asarlari tilida qoʻllanadi.

> *Qilmadim umrumda bir rakat namoz,*
> *Sarbasar mahzi niyoz, ey Beniyoz.*
>
> A.Navoiy

> *Mahv etibsan Mashrabo devonani, ey Beniyoz,*
> *Bir pari talʼat, shakar guftordin ayrilmisham.*

---

[18]Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик, I том. – М.: Рус тили, 1981. – Б. 387; Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. II жилд. –Тошкент: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020. – Б. 372.

[19]Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. II том, – Тошкент: Фан, 1983. – Б.117.

O'zbek tilida faol qo'llanadigan *Xudo, Parvardigor* teonimlari madaniy va ma'rifiy aloqalar jarayonida fors-tojik tilidan o'zlashgan. Bunda badiiy adabiyotning hissasi katta o'rin tutadi. Ham og'zaki, ham yozma nutq shakllarida faol qo'llanishining omillaridan biri ham badiiy adabiyot ta'siri, roli va o'rni bilan izohlanadi.

O'zbek tilida qo'llanishi bo'yicha Xudo teonimining faollik darajasi va xalq orasida chuqur o'zlashganligini shundan ham ko'rish mumkinki, bu so'zga xohlamoq, urmoq, saqlamoq, bermoq, qo'rqmoq, fe'llari qo'shilgan holda ham ko'p qo'llanadi.

Faol teonim sifatida bu so'z juda ko'p boshqa so'zlar bilan bir butunlik tarkibida kelib, shu barqaror birikmalar ma'nolarini belgilash uchun xizmat qiladi. Ana shunday barqaror birikmalarning biri "xohlamoq" so'zi bilan bog'langanda shakllanadi. Bu birikma so'zlashuv tilida ham, badiiy adabiyot tilida ham faoldir.

Ma'lumki, tarixiylik har bir hodisaga uning qanday tarixiy sharoitda vujudga kelganligi, qanday tarixiy bosqichlardan o'tganligi va qanday holga kelganligi nuqtayi nazaridan qaraydi va baholaydi. Bu teonimlar, teonimik tushunchalar va shu tushunchalarni ifodalagan so'zlarga ham taalluqlidir. Mana shu tamoyillardan kelib chiqib baholanganda:

Ega//Egam, Tangri so'zlari hozir ham tarixan shu teonimlar qatorida qo'llab kelingan, *Bayat//Bayot, Ug'an//Ug'on, Kirdigor* teonimlari hozirgi o'zbek tilida qo'llanmaydi.

Markaziy Osiyoga islom kirib kelishi bilan arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan teonimlar qo'llanishi faollashgan.

"Qutadg'u bilig" dostonida jami ikki yuz qirq o'rinda teonimik maydonga mansub so'zlar qo'llangan. Shulardan ikki yuz yigirma bittasi umumturkiy tillarga xos teonimlardir. Bu jami teonimlarning 92.8% ni tashkil etadi.

"Haj daftari" turkum she'rlarida teonimlarning qirq o'rinda takrorlanishi kuzatiladi. Arab tiliga mansub Alloh, Rabb, Haq, Xoliq teonimlari o'ttiz bir marta takrorlanadi. Bu 77.5%ga teng. Eng ko'p takrorlangani – Alloh. Uning qo'llanishi o'n olti marta – 40%; Rabb yetti marta – 17.5%; Haq besh marta – 12% dan iborat.

O'zbek tiliga doir teonimlar besh marta – 12.5%, shundan Egam ikki marta – 5%; Tangri uch marta – 7.5% keltirilgan.

Fors-tojik tiliga mansub Xudo, Parvardigor ikki marta – 10% uchraydi.

Ko'rinadiki, "Haj daftari" turkum she'rlarida arab tilidan o'zlashgan teonimlar faol qo'llangan.

"Nutqiy teonimlarning semantik va struktural tavsifi" deb nomlanuvchi ikkinchi bobning **"Nutqiy teonimlarning lug'aviy ma'no asoslari"** deb ataluvchi birinchi faslida nutqiy teonimlarning lisoniy ma'no asoslari tadqiq etiladi.

Ma'lumki, so'zda tushuncha yashaydi va tushuncha orqali borliqda mavjud bo'lgan predmetlar, keng ma'nodagi belgilar, voqeliklar ifodalanadi. Bu so'zning nominal ma'nosi bo'lib, milliy tilda barqarorlashgan, shu tilda so'zlashuvchilar tomonidan bir xilda qo'llanadigan va tushuniladigan ma'nodir. Figural ma'noda anglashiladigan tushunchada ifodalanayotgan predmet, belgi va harakatlar bevosita aks etmaydi, balki nominal ma'no orqali yuzaga chiqadi. So'zlarni individual

qo‘llash tufayli vujudga keladigan ma’lum bir so‘zlar toifasi tizimiga teonimik ma’no ifodalovchi so‘zlar ham kiradi. Bunday teonimlar milliy til va shu tilda so‘zlashuvchilar uchun barqaror nomga aylanmagan teonimlar, ya’ni okkazional teonimlardir. Bu tur teonimlar Yaratguvchi “tushunchasini ifodalashdan tashqari, unga xos turli buyuk fazilat va xislatlarni ham ifodalaydi”[20].

Figural ma’noning asosi nominal ma’nodir. So‘zni individual qo‘llash bilan teonimik ma’no ifodalash uchun leksik-semantik jihatdan mantiqiy bog‘lanish bo‘lishi shart. Bu haqda professor Sh.Iskandarova quyidagilarni yozadi: “ShNG (shaxs nomi guruhi – N.Sh.)ga mansub bo‘lgan lingvistik birliklar tahlilida umumiydan xususiyga yoki xususiydan umumiyga qarab yo‘nalish mumkin bo‘ladi. Birinchisi butunni bo‘laklarga parchalashni, ikkinchisi bo‘lakni butun tarkibiga birlashtirishni maqsad qilib qo‘yadi ...”[21]. Bu prinsiplar nutqiy hodisa sifatidagi figural teonimlarga ham tatbiq etilishi mumkin. Bunda, albatta, bir xillik emas, umumiylik kuzatiladi.

O‘zbek tilida nutqiy teonim sifatida qo‘llanuvchi so‘zlar mavzudoshlik asosida quyidagicha guruhlanadi: 1) o‘rin-makon (fazo) tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 2) funksiya – vazifa tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 3) egalik tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 4) insonning botiniy olami va tashqi ko‘rinishini ifodalovchi so‘zlar; 5) yaqinlik, dildoshlik, sirdoshlik ma’nosini ifodalovchi so‘zlar; 6) go‘zallik tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 7) xarakter tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 8) mahorat-mohirlik tushunchasini ifodalovchi so‘zlar.

O‘zbek tilida Yaratguvchi tushunchasini okkazional ifodalovchi so‘zlar leksik-semantik jihatdan quyidagicha guruhlanadi: 1) o‘rin-makon (fazo) tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 2) funksiya –vazifa tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 3) egalik tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 4) insonning botiniy olami va tashqi ko‘rinishini ifodalovchi so‘zlar; 5) yaqinlik, dildoshlik, sirdoshlik ma’nosini ifodalovchi so‘zlar; 6) go‘zallik tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 7) xarakter tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 8) mahorat-mohirlik tushunchasini ifodalovchi so‘zlar; 9) ramziy obraz va predmetlar nomlarini ifodalovchi so‘zlar; 10) o‘simliklar nomlarini ifodalovchi so‘zlar; 11) mifonimlar.

Leksik-semantik jihatdan ma’lum bir ma’noni anglatuvchi so‘zlar bir mavzu maydoniga tegishli yoki aksincha bo‘lishi ham mumkin. Masalan, mifonimlar alohida holda o‘ziga xos leksik-semantik maydonni tashkil etadi, ularning ayrimlari mavzudoshlik maydonida go‘zallik ifodalovchi so‘zlar maydoniga tushadi, alohida mavzu maydonini tashkil etmaydi. Ramziy obraz sifatida Layli go‘zallik ifodalovchi maydonga tushadi, ramziy predmet bo‘lgan tojisar esa bu maydonga tushmaydi.

Okkazional teonimlar, qaysi maydonda bo‘lishidan qat’i nazar, albatta, shaxslashtiriladi, shu jihatdan ularning barchasi “personallik maydoni”da birlashadi. U yor, yo‘ldosh ko‘rinish va xarakterlari bilan bir-biridan farqlanuvchi shaxs – obraz. Mavzudoshlik bo‘yicha birinchi guruhga kiruvchi so‘zlar o‘rin-makon (fazo) tushunchalarini ifodalovchi so‘zlardir: *Gar qoida ko‘tarsa-yu, izn etsa osmon...*(A.Oripov).

[20]Улуқов Н. Экзоти лексика. – Тошкент: Усмон Носир медиа нашриёти, 2021. – Б. 107.
[21]Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 105-106.

Ikkinchi guruhga teonimik ma'no strukturasida funksiya – vazifa tushunchasini ifodalovchi so'zlar kiradi:

*Tushubman yo'lungga tanho, o'zungsan menga **g'amxorim**,*
*Yiqilganda qo'lim tutgil, madad qilgil, **madadkorim**.*

<div align="right">Mashrab</div>

Uchinchi guruhda mavzudoshlik leksik-semantik asos egalik tushunchasi bilan bog'lanadi. Yaratguvchi borliq, mavjudlikning egasi. Masalan:

Lutfiyi miskinga bu hijron tuni
*Rahm qiling, garchiki **sultonisiz.***

<div align="right">Lutfiy</div>

To'rtinchi guruhda insonning botiniy dunyosini ifodalovchi lug'aviy birliklar figural ma'noda Yaratguvchi tushunchasini ifodalash uchun qo'llanadi. Yaratguvchi shu borliqdagi har bir narsa, har bir zarrada mavjuddir. Insonda, uning joni, ruhida ham mavjud.

*Ey **jon**, sanga oningdek bir qul yana topilmas...*
Zinhor anga nazar qil – quldur sanga chu Bobur.

Beshinchi guruhda yaqinlik, dildoshlik, sirdoshlik ma'nosini ifodalovchi so'zlar asosida teonimik ma'no yaratiladi. Bunda *habib, mahrami jonon, rozdon, begim* kabi so'zlar nutqiy teonim bo'lib keladi.

*Gar kalomingni Masih anfosi dedim, ey **habib,***
Ayb qilmaki, g'alat gohe tushar qur'on aro

<div align="right">Alisher Navoiy</div>

Oltinchi guruhga Yaratguvchining sifatlari bilan bog'liq so'zlarni kiritish mumkin, ya'ni U barcha ezguliklar, ulug' va yoqimli fazilatlar egasi. Uning shu sifatlaridan kelib chiqib ifodalanadigan nomlari ham go'zal. U suyukli, go'zal, go'zallik egasi:

*Doimo ishqingda yig'larman sening, **ey nozanin**,*
Gar bugun kim yig'lar ersa, tongda xandon ayladi.

<div align="right">Mashrab</div>

Insonning botiniy olamini ifodalovchi so'zlar orqali ko'pgina nutqiy teonimlar yaratilgan. Bular dilbar, dildor, dilyoqar, dilsiton, dilrabo kabilardir. Bularning ichida eng ko'p nutqiy teonim sifatida qo'llanadigani dilbar so'zidir.

*Tarahhum qil, ayo **dilbar**, qulungga ko'p jafo qilma,*
O'zungga oshno qilding, g'aribu benavo bo'ldim.

<div align="right">Mashrab</div>

Xalq ongi, tafakkurida barqarorlashgan, milliy tilda so'zlashuvchilar tomonidan bir xilda tushuniladigan turli qiyofalar mavjud bo'lib, go'zallik va xunuklik tushunchalari ifodalanadi. Yalmog'iz yovuzlik va xunuklikning ramziga aylangan. Layli esa go'zallik ma'no asosi bilan Yaratguvchi tushunchasining figural ifodalanishi uchun xizmat qiladi.

*Har zamone **Laylidin** menga kitobatlar kelur,*
Senki Majnun bo'lmasang, bolu parimni kavlama.

<div align="right">Mashrab</div>

Osmon jismlaridan oyga goʻzallik tushunchasini ifodalovchi jism sifatida ham qaraladi. Xalq ongida goʻzallik ifodachisi boʻlgan oy ramziy obrazga aylangan. Bu Yaratguvchini anglatish uchun asos maʼnodir.

*Eyki, istarsen oʻzungni fard ul **oy** ishqida,*
Avval oning gʻayri yodidin oʻzungni ayla fard.

Alisher Navoiy

Tilda Yaratguvchi nomining uzual ifodasiga nisbatan okkazional ifodasi katta maydonni egallasa, bu maydonda uning nomini goʻzallik tushunchasi bilan bogʻlab ifodalanishi katta hajmni tashkil etadi.

Yettinchi guruhda Yaratguvchi tushunchasining nutqiy ifodalanishida xarakter tushunchasini ifodalovchi soʻzlar toifasi keng qoʻllaniladi. Bunday soʻzlar orqali, odatda, bir-biriga qarama-qarshi boʻlgan xususiyat, fazilat va oʻziga xosliklar ifodalanadi. Yaratguvchi nomining nutqiy ifodalanishida quyidagi soʻzlar faol qoʻllanadi:

1. Vafodorlik va bevafolik xarakteri

*Ki sensiz naylayin ushbu jahonni, ey **vafodorim**,*
Azobi qabr – hijron dardidin, albatta, osondur.

Mashrab

2. Mehribon – nomehribon so'zlari nutqiy teonim vazifasida keladi.

*Tashnalab qoldim gʻamingda, **mehribonim**, qaydasan?*
Oh urub yig'lab yururman, jonajonim, qaydasan?

Mashrab

3. Shoʻx soʻzi.

*Qiyo-qiyo boqishing jonim olur, ey **shoʻx**,*
Takalluming dogʻi jismimga jon solur, ey shoʻx.

Munis

4. Nuktadonlik zamirida bilim, bilimdonlik, bilimning mantiqiyligi kabi fazilatlar yotadi. Bu maʼnolar ham nutqiy teonimlar uchun asos maʼno sifatida xizmat qiladi.

Kimdin oʻrganding muncha jafoni,
*Ey **nuktadonim**, ishqingda oʻldim.*

Mashrab

5. Pokbozlik xarakterdagi poklik, tozalik, igʻvo va tuhmatdan juda uzoqlikni, chinlik, rostlikni ifodalaydi. Bu soʻzlarda Yaratguvchi tushunchasini ifodalash uchun asos maʼno mavjud.

***Pokbozam**, xoriji dunyoi ukbodin judo –*
Suratim garchi bashar keldi, malakdur siyratim.

Mashrab

6. Safo baxsh etish Yaratguvchining sifatlaridan biri.

*Ey **safobaxsh**, nafsi fir'avinimga bir shamshir ur,*
Toki hamrohi Muso boʻlsun meni bu xislatim.

Mashrab

7. Yaratguvchiga nisbatan shikoyat, taʼna kabi ruhiy holatlarni ifodalashda sitamgar, makkor, zulmgar tipidagi koʻpgina soʻzlar nom boʻlib keladi.

> *Qaydanam tuttim o'shal sho'xi **sitamgar** etagin?*
> *Sitam etgancha ko'ngul ushladi dilbar etagin.*

<div align="right">Uvaysiy</div>

8. Rohatijon atamasida jonga rohat baxsh etish ma'nosi asos ma'no sifatida Yaratguvchini ifodalashi bilan birga xarakterni ham ifodalaydi.

> *Na qattiq kun edi, ey **rohati jon**,*
> *Seningdek ofati jonga yo'luqtum.*   .

<div align="right">Mashrab</div>

9. Yaratguvchiga yetishish azob, shunda U zolim deb ataladi.

> *Emdi, ey **zolim**, qilursan kimga zulm,*
> *Munis o'ldi hajring ichra zor o'lub.*

<div align="right">Munis</div>

10. Talxguftor guharbor, la'li guharbor so'zlarining ziddi sifatida teonimik ma'no kasb etadi.

> *La'l ila gavharni ey daryovu kon, arz aylamang,*
> *Kim alarda qadr yo'q ul **la'li guharbor** ollida.*

<div align="right">Munis</div>

11. Rahm-u shafqat Yaratguvchining azaliy sifati, ammo yetishish oson emasligidan ko'ngli qattiq deb ataladi.

> *Ey **ko'ngli qattiq**, rahm aylamaysan,*
> *Qilg'il nazzora bechoralarg'a.*

<div align="right">Mashrab</div>

12. Ta'na, malomat va isyonlar arz etilganda "qotil" so'zi ham qo'llanadi. Bunda ham Yaratguvchidan uzilish mutlaqlikda ifodalanmaydi.

> *Yuzungni ko'rdim emdi ko'zlarimni bog'la, **ey qotil***
> *Ki, nogah bo'lmag'aylar o'zga yuzni ko'rgali moyil.*

<div align="right">Alisher Navoiy</div>

13. Berahmlikning asosi va zamirida "bag'ri qattiqlik" bilan birga "zolimlik" tushunchasini ifodalovchi so'zlarga ham murojaat qilinadi.

> *Rahm ayla manga, ey, **bag'ri qattiq**,*
> *Diydam to'la qon, ey sho'xi **zolim**.*

<div align="right">Muqimiy</div>

14. Yaratguvchini ifodalashda ayyor, makkora sifatlari ham nom sifatida qo'llanadi.

> *Jahon **makkorasi** dilkashdur, ammo kimki aqd etsa,*
> *Ipak jon rishtasi yormoq, anga din naqdi kobindur.*

<div align="right">Alisher Navoiy</div>

Mohirlik, chevarlik, san'atkorlik Yaratguvchiga xos sifatlardir. U borliqni, uning qismlarini mohirlik bilan, bir-biriga muvozanatda, mutanosib ravishda, "azal naqqoshi"[22] sifatida go'zal qilib yaratgan. Bunday toifaga kiruvchi so'zlar sakkizinchi guruhni tashkil etadi.

> ***Azal naqqoshikim**, chekti yana oy naqshini go'yo,*
> *Qalam sof aylar erdi sizg'ali ul dilrabo naqshin.*

---

[22]Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳи луғати. Тўрт томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 55.

Badiiy nutqda mashshota, shu so'z bilan qo'llanadigan sun', qazo so'zlari bilan Yaratguvchi tushunchasi ifodalanadi.

> ***Mashshotai qazo*** *bezamish xolu xating*
> *Beixtiyorliqda manga bormu ixtiyor?*

<div align="right">Alisher Navoiy</div>

Qazo musavviri, qazo dehqoni, qazo narrodi kabi birikmalarda ham Yaratguvchi ifodalanadi.

> ***Qazo musavviri*** *go'yo hal etti la'liy rang,*
> *Labing aqiqini aylar mahalda rangomez.*

<div align="right">Alisher Navoiy</div>

Mavzudoshlik bo'yicha sanab o'tilgan va ko'rsatilgan guruhlarga boshqa ko'plab teonimik ma'no potensialiga ega bo'lgan so'zlar ham kiradi. Bunday guruhlashda asos ma'noga suyaniladi.

Ikkinchi bobning **"Figural teonimlarning struktural tahlili"** deb nomlanuvchi ikkinchi faslida o'zbek tilida qo'llanadigan figural teonimlar strukturasi tadqiq etilgan.

O'zbek tilida qo'llab kelingan *Bayat//Bayot, Ug'an//Ug'on, Tangri,* shuningdek, o'zlashgan *Alloh, Parvardigor* teonimlari struktural jihatdan sodda teonimlardir. Okkazional teonimlar ko'chimga asoslangan figural ma'nodagi teonimlar sifatida, struktural jihatdan sodda va murakkab turlarga bo'linadi.

Figural ma'noda qo'llanuvchi barcha nutqiy teonimlarda yasalish asosi bo'lib kelish potensiali mavjud emas. Ular bu borada o'zaro farqlanadi: oy, tabib, hakim, habib, sulton, ayyor, oshiq, ma'shuq kabi so'zlar yasalish asosi bo'lib kelmaydi.

Yaratguvchi ma'nosini ifodalovchi mifonimlardan *pari, hur, malak* so'zlari yasalish asosi sifatida faol teonimlar sirasiga kiradi.

> *Junun ichra majnun emas, ey **pari**,*
> *Yo'lingda bu oshufta xolingcha xo'b.*

<div align="right">Munis</div>

> *Ul **parivash** ishqidin, nosiq, meni man' etmakim,*
> *Telbalik vaqti-yu oshiqlik zamonidur manga.*

<div align="right">AlisherNavoiy</div>

Pari birinchi baytda sodda tub nom sifatida kelgan. Keyingi baytda qo'llangan parivash sodda yasama so'z bo'lib, pariga o'xshash, pari sifatli kabi ma'nolari bilan Yaratguvchi tushunchasini ifodalaydi.

Ramziy ma'nosi bilan teonim sifatida qo'llanuvchi atoqli otlar yasalish asosi bo'lib keladi. Layli shunday timsollardan.

> *Ayo **laylivashim**, bir g'amzayu noz birla o'ldurding,*
> *Firoqing dashtida Majnun ila hamxona yig'larman.*

<div align="right">Mashrab</div>

Go'zallik ma'nosi bilan figural-nutqiy teonim sifatida qo'llanuvchi barno, zebo, nozanin so'zlarida yasalish potensiali mavjud emas. "Moh" esa yasalish asosi bo'lib kela oladi.

*Yuz ochib kelgil, ey **mahvash**, quyosh yanglig' xirom aylab,*
Boshimg'a soldi savdo firqating subhimni shom aylab.

Ogahiy

Mah va -liqo komponentlarining birikishi ham go'zallik ifodalash ma'nosi bilan Yaratguvchini anglatadi.

*Sen yaqo chek otlanib, ag'yor ila, ey **mahliqo**,*
Men yiroqdin rashk ilgi birla yirtarmen yaqo.

Munis

Xarakter ma'nosini ifodalovchi ayyor, sho'x, makkor o'zak morfema sifatida yangi ma'no yasalishi uchun asos ma'no vazifasida kelmaydi. Mehribon so'zi esa o'zak morfema sifatida asos ma'no komponenti bo'lib keladi.

Jonim ichra otashi mehring bo'lubdur shu'la zan,
*Ko'rguzub bir mehr, ey **nomehribon**, kelmasmusen.*

Munis

O'zak va affiksal morfemalar qo'shiluvidan yasalgan teonimlarning yuqorida ko'rilgan tiplarida o'zak morfemaning o'zi ham Yaratguvchi tushunchasini ifodalab keladi.

Sodda yasama teonimlarning navbatdagi turida o'zak morfema yakka holda teonimik tushuncha ifodalash uchun qo'llanmaydi. Masalan, madad yoki nom so'zi Yaratguvchi tushunchasini ifodalamaydi. Madadkor – *"madad qilg'il, madakorim"*, nomdor – *"nomdorim kelsano"* Yaratguvchi tushunchasini ifodalab keladi.

Odat – xarakter tushunchasini ifodalovchi sitam, zulm, vafo so'zlari teonimik ma'noda qo'llanmaydi, yasama so'z sifatida Yaratguvchi nomi o'rnida qo'llanadi: ***Sitamgarni** oshno deb bo'lurmi* (Uvaysiy); *Ki sensiz naylayin ushbu jahonni, ey **vafodorim** (Mashrab).*

Bu affiksatsiya usuli bilan yasalgan va nutqiy teonimik ma'noda qo'llanuvchi so'zlardir.

Nutqiy teonimlar yasalish asosi bo'yicha ikki mustaqil so'zlarning qo'shilishi bilan ham yaratiladi.

1. Qo'shma so'z tarkibiga kiruvchi komponentlardan biri alohidalikda figural ma'nosi bilan teonimik tushuncha ifodalash uchun qo'llanadi, ikkinchisi qo'llanmaydi. Masalan, sarv so'zining bir o'zi nutqda teonim bo'lib keladi. *Nedur jilvang, **ey sarv**, bo'ston aro.* (Munis) Lekin sarvqomat, sarviqad, sarvinoz qo'shma so'zlarining ikkinchi komponenti o'zi alohidalikda teonimik ma'noda qo'llanmaydi.

2. Qo'shma so'z tarzida shakllangan nutqiy teonimlarning ikkinchi turida qo'shma so'zni tashkil etuvchi har bir komponent o'zi alohidalikda teonimik ma'no ifodalaydi.

Har dam meni kuydirguchi ul ishvanamodur,
Mavzun qadi shamshod,
Siymin zakaku lola ruhu mohliqodur,
*Chun **huri parizod**.*

Mashrab

3. Qo'shma so'z tipida Yaratguvchi tushunchasini ifodalovchi nutqiy teonimlarning navbatdagi turida birikmaga kiruvchi so'zlar alohidalikda teonimik ma'no bilan qo'llanmaydi.

*То истаб оғоз қилди ул **қуёш сиймо** манго*
Тийра зиндин батардур бу ёруқ дунё манго.

<div align="right">*Комил*</div>

Tadqiqotning uchinchi bobi **"Teonimlarning lingvopoetik tavsifi"** deb nomlanib, uning **"Uzual teonimlarning lingvopoetikasi"** deb atalgan birinchi faslida uzual teonimlarning nutq uslublariga xoslanishi va poetik vazifalari bo'yicha fikr yuritiladi. Bu toifaga doir teonimlar keng omma tomonidan qo'llanish yoki qo'llanmasligi asosida tasnif etilganda, lisoniy hodisa sifatida, ikkiga bo'linadi: universal leksik qatlamga mansub teonimlar, kitobiy leksik qatlamga oid teonimlar.

Universal leksik qatlamga doir teonimlar omma – so'zlashuv nutqida ham, kitobat tilida ham bir xil faollikda qo'llanuvchi teonimlardir. Ularni uslublararo leksik qatlam sifatida ham belgilash mumkin. Bunda faqat bir jihat ularni o'zaro farqlab turadi: universal leksik qatlamga mansub teonimlar o'z sinonimlariga ega bo'ladi, uslublararo leksika "uslubiy sinonimlariga ega"[23] bo'lmaydi. Chunki Xudo, Olloh, Parvardigor kabi teonimlar sirasida bir dominant sifatidagi bosh so'z bo'lmaydi. So'zlovchining nutqiy vaziyatdagi holatiga bog'liq holda ulardan biri qo'llanaveradi. Qur'on matnlari tarjimasida Alloh va Tangri teonimlari ayni ma'noda kelishi mumkin. Masalan, "Tangringiz yagona Tangridir. U mehribon va rahmli. Tangridan o'zga hech qanday Tangri yo'qdir"[24]. Keltirilgan oyatdagi Tangri teonimi Alloh teonimiga mos tushadi. Lekin "Olloh nozil qilgan kitob"[25] birikmasida kelgan Olloh o'rnida Tangri teonimining qo'llanishini til qoidalari ko'tarsa ham, nutqiy norma, mantiq-mohiyat ko'tarmaydi. Chunki "nozil" so'zining Alloh teonimi bilan qo'llanishi barqarorlashgan. O'zbek tilida qo'llanuvchi Egam, Tangri, Xudo, Olloh, Parvardigor kabi teonimlar universal leksik qatlamga kiradi. Adabiy til odatdagi yozuv-kitobat va og'zaki-so'zlashuv asosiga ko'ra ajratilganda, ideal va'z kitobiy-og'zaki muloqotning namunasi[26] sanaladi. M.R.Galiyeva God, Gospod, Yaxve, Zevs, Brahma, Ahura Mazda kabi teonimlar qatorida o'zbek tilida qo'llanadigan Olloh teonimini ham umumdiniy leksika doirasiga kiritadi[27].

Sh.Yusupova "diniy matnlar uslubiy xususiyatlari bajaradigan funksiyalariga ko'ra boshqa matn turlaridan farq qiladi"[28], deb yozadi. Matn turi sifatidagi bu farqlanishning o'ziga xos jihatlari N.Uluqov tomonidan aniq belgilangan: "... diniy matnlar lisoniy tabiati, mohiyat va mazmuniga ko'ra rasmiy, badiiy, ilmiy xarakterga egaligi nuqtayi nazaridan boshqa matn turlaridan farqlanadi hamda alohida matn turini tashkil etadi"[29].

Teonimlar funksional jihatdan odatdagi so'zlar kabi neytral, shuningdek, o'z leksik ma'nolariga yuklangan emotsional-ekspressiv jilosi bilan ham qo'llanishi

---

[23]Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. – Б. 118.

[24]Қуръони карим. Алоуддин Мансур. Изоҳли таржима. – Тошкент: Шарқ, 1992. – Б. 19-20.

[25]Қуръони карим. Алоуддин Мансур. Изоҳли таржима. – Тошкент: Шарқ, 1992. – Б. 20.

[26]Николаева Н.Г. Проблема "Церковно-религиозного" стиля в современном русском языке. Известие вузов. Северо-Кавказский регион. Общественные науки №6, – Казань, 2008. – С. 124.

[27]М.Р.Галиева. Дунёнинг лисоний тасвирида диний-мифологик тафаккурнинг акс этиши. Филол.фан.док...дисс.автореф. – Фарғона, 2009. – Б. 19.

[28]Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.б.фалс.док...дисс.автореф. – Фарғона, 2021. – Б. 18.

[29]Улуқов Н. Экзотик лексика. – Тошкент: Усмон Носир медиа нашриёти, 2021. – Б. 23.

mumkin. Lekin din insonning o‘z ustidan hukmronlik qiluvchi tashqi kuchlarga bo‘lgan emotsional munosabatlarini ifodalaydi.Teonimik ma’no ifodalovchi so‘zlar o‘z nominal ma’nolari bilan ilohiy tushunchalarni inson ongiga singdirishda intellektual ahamiyat kasb etsa, poetik matn doirasida qo‘llanishi bilan inson qalbiga ta’sir qiladi, ruhiy-ma’naviy ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Badriyning "Juvonmarg" fojiasi personajlaridan biri Tursunoy nutqida ayni shu hol kuzatiladi. Qahramonning ichki ruhiy psixologiyasida ro‘y bergan chuqur affektiv holat tasvirida Xudo teonimi markaziy o‘rin egallaydi.

– Oh, Xudo. Nimaga mani muncha badbaxt qilib yaratding? Nimaga mani tug‘dirib, o‘sdirding? Nimaga bu qaro kunlarni, bu balolarni ko‘rgazasan? Bu kunlarni ko‘rguzguncha, bu mehnatlarni va azoblarni, bu rasvoliklarni ko‘rguzguncha ... ko‘rgazmasang, nima bo‘lardi? Maningdek tolesiz bandang hech bormi? Agar manim toleim shunday qaro bo‘lib, qolgan umrim ham toleqarolik minan o‘ta turgan bo‘lsa, hozir jonimni ol! Jonimni olsang, yaxshiroqdur. Qayta jabr-jafolardan qutular edim. E, bor Xudoyo! Ol, jonimni ol!...

Bu poetik parchada qizning emotsional holati – affektiv psixologik holat – Xudoga bo‘lgan isyonda o‘z ifodasini topgan. Xudo, adresat – murojaat obyekti sifatida, inson tomonidan bo‘ladigan iltijoning, ibodatning, malomatning eng cho‘qqisi va eng oxirgisi, undan keyin va undan yuksakda boshqa hech kim yo‘q.

Uzual teonimlar poetikasida tahlilga tortilishi zarur bo‘lgan o‘ziga xoslikning yana biri xususida to‘xtalish lozim. Bu – tarkibida teonimlar qo‘llangan jumlalar mazmunida yaratilgan emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish usullarini belgilash. Teonimlarni qo‘llash bilan emotsional-ekspressivlikni yanada oshirishning ikki usuli bor:

1) teonimlarni emotsional undovlar bilan birga qo‘llash usuli. Emotsional undovlar quvonch, qayg‘u, hasrat, hayrat, xohish-istak, qo‘rqinch, g‘azab, nafratlanish kabi his-tuyg‘ularni emotsional-ekspressivlik jihatdan yanada kuchaytiradi.

Yo rab, sengadur yuzum qaro gar oq qil,
Har nav' sening rizong erur andoq qil!

Bobur

2) teonimlarni takrorlash usuli. Teonimlar inson psixologik holatining badiiy tasvir bilan yuzaga chiqishida takror usuli katta ahamiyat kasb etadi.

Gunoh qilgan bo‘lasam jazo qil, Tangrim,
Iymonsizga iymon ato qil, Tangrim,

O‘zingdan inoyat tilarman, Olloh!
O‘zingga ibodat qilarman, Olloh!

Dushan Fayziy

Ko‘rinadiki, nutqiy vaziyatning personaj psixologiyasidagi ifodasi teonimlarning har bir jumla oxirida epiforik takrori orqali yuzaga chiqqan. Bu teonimlar poetikasining muhim funksional xususiyatlaridan biridir.

Takror teonimlar nutqda ma’no kuchaytirish, emotsional-ekspressiv ottenkalarni ta’kidlash, poetik effektni yanada oshirish kabi vazifalarni bajaradi.

Uchinchi bobning "**Figural teonimlar lingvopoetikasi**" deb nomlanuvchi ikkinchi faslida mazkur teonimlarning lingvopoetik funksiyasi tahlil etiladi.

Figural teonimik leksik qatlam o'zining nominal ma'nosini yo'qotmagan holda va shu nominal ma'no asosida Yaratguvchi tushunchasini ifodalovchi so'zlardir. Bu jihatdan figural teonim mantiqiy fikr yuritishning mahsuli sanaladi. Masalan, *hur* mifologik talqinga ko'ra, "jannatdagi go'zal qiz". Yaratguvchi tushunchasini ifodalash va uning o'zini nomlash uchun mana shu xususiyat asosga olinadi. Bunda interpretatsiya asosini go'zallik tushunchasi tashkil etadi. Figural teonimik leksik qatlamning vujudga kelishida obrazli-metaforik ko'chim eng mahsuldor yo'ldir. Shu jihatdan qaraganda nutq hodisasi sifatida bu leksikon badiiy-estetik tafakkur faoliyatining mahsulidir.

"Til grammatika va filologiyaga qaraganda keng va o'lchab bo'lmas hodisadir. Bu xalq ruhining, madaniyatining poetik vasiyati, ular ta'siri ostida bo'y olgan fikr va obrazlarning tipik timsoli. Agar bu qadimiy mazmun zamiriga yetib bormoqchi bo'lsak, o'tgan zamonlarda shu tilda gaplashgan odamlar fikrlarini anglab yetmoqchi bo'lsak, ma'lum ma'noda romantik va poetik yondashuvlar zarur bo'ladi...[30]".

Romantik tasavvurlar, poetik mushohadalar bilan qiyofalantirilgan pari haqidagi qarashlar juda qadimdagi mifologik tafakkur yo'sinlariga ulanadi. Bu qarashlarga muvofiq, parilar go'zal qiz yoki ayol qiyofasida suv havzalarida (daryo, ariq, soy, ko'l, quduq) ham yashaydilar deb tasavvur qilinadi[31].

Malak kabi mifonimlar Yaratguvchi tushunchasini ifodalash uchun qo'llagan.

Yaratguvchi tushunchasi va nomini ifodalash uchun obrazli-metaforik ko'chim asosida qo'llanuvchi barcha jonsiz predmetlar nomlari, badiiy-estetik tafakkur faoliyati bilan bog'liq holda jonlantiriladi va shaxslashtiriladi. Bundan kelib chiqadiki, badiiy nutq uslubi, keng ma'noda, figural teonimlarning harakatlanish maydonidir.

Metaforik qo'llanayotgan so'zda obyekt, bu o'rinda Yaratguvchi, to'liq gavdalanadi. Masalan, *pari* mifonimi Yaratguvchini biror qism orqali emas, butunlikda ifodalaydi: *Iltifote qilmay o'tti ul pari javlon bo'lub. (*Mashrab)

Gul so'zi butunni ham, qismni ham ifodalashi quyidagi baytda o'z ifodasini topgan:

Ko'rmamish sendek jahonda hech bir gulzor gul
Kim, sanga bordur badan gul, jabha gul, ruxsor gul.

(Komil Xorazmiy)

Baytdagi sendek so'zi Yaratguvchiga ishora qiladi. Bu misralar nasrga aylantirilganda aniq namoyon bo'ladi:

Ey gul, jahonda hech bir gulzor sendek gulni ko'rmabdi,
Chunki senda badan ham gul, jabha ham gul, ruxsor ham gul.

Mana shu tashqi sifatlar gulzor gulidan Yaratguvchi – Gulni farqlaydi. Bu o'rinda gul Yaratguvchini to'liq ifodalaydi.

---

[30]Неру Дж. Открытие Индии. – М.: изд.политической литературы, 1989. – С. 160-161.

[31]Мифологический словарь. – М.: СЭ, 1990. – С. 421; Қаюмов О.С. Ўзбек фолклорида пари образи. НДА. – Тошкент, 1999. – Б. 7-8.

Teonimlar poetikasida sintaktik stilistik vosita sifatida undalma alohida o'ringa ega, chunki inson eng ko'p Yaratguvchiga murojaat qiladi, undalmada esa murojaat obyekti ifodalanadi. Murojaat obyekti bajaruvchi – adresat, shuning uchun unga bo'lgan murojaatda so'raladi, adresant tomonidan bildirilgan fikr, bayon etilgan xabar eshitilishi, unga e'tibor qaratilishi so'raladi. Teonimlar undalma bo'lib kelganda ham so'rash saqlanadi, shuningdek, iltijo, yolborish, ta'na, malomat kabi munosabatlar ham ifodalanadi, ya'ni adresantning murojaat obyektiga bo'lgan ijobiy yoki salbiy munosabatlari namoyon bo'ladi. Bu fikrlar dissertatsiyada poetik namunalardan olingan misollar yordamida dalillangan.

Undalma vazifasida qo'llangan figural teonimlar ma'nosini emotsional-ekspressivlik jihatidan yanada kuchaytirish uchun undovlar bilan birga qo'llanadi. "Ey" undovi mustaqil undalma sifatida qo'llanganda, bu undov-undalmani izohlab keluvchi teonimik undalma orqali Yaratguvchi tasvirining tavsifiy bayon etilishi va ta'riflanishi misollar asosida yoritilgan.

Figural teonimlarning stilistik xususiyatlaridagi yetakchi jihat shundaki, bunda Yaratguvchi qayta nomlanadi, bu nomlash badiiy estetik ko'chimga asoslanadi. Yaratguvchi yoyiq tavsifiy ifodalanish orqali nomlanganda ham, shu nomlar orqali U tavsiflanadi, ta'riflanadi.

XULOSA

1. Hozirgi o'zbek tilida xalq ongi va ruhiyatida muhrlangan, barqarorlashgan va umumturkiy xarakterga ega bo'lgan asliy va o'zlashgan uzual teonimlar qo'llanadi. Umumturkiy teonimlarning iste'molga kirib kelishi amalda tangrichilik davriga to'g'ri keladi, genezisi esa turkiy xalqlarning borliq va tabiat haqidagi bilimlari hamda falsafasiga borib tutashadi.

2. O'zlashgan teonimlarning vujudga kelishi hududga islom dinining kirib kelishi bilan bog'lanadi. Tarixan asliy teonimlar faolligi ustuvor bo'lgan, keyinchalik diniy marosim va odatlar yangi kirib kelgan din qoidalariga muvofiq, islomiy asoslarga ko'ra o'tkazilishi tufayli hamda shu amallarning ta'sirida o'zlashgan teonimlar faolligi ortib borgan, ba'zi asliy teonimlar umuman iste'moldan chiqqan. Fors tilidan o'zlashgan teonimlar adabiy-badiiy aloqalar, xususan, tasavvuf adabiyoti aloqadorligi bilan bog'lanadi. Bunda badiiy adabiyotning xalq tiliga ta'siri ham kuzatiladi.

3. Yaratguvchi tushunchasi uzual ma'nolar bilan birga, figural ma'nolar bilan ham ifodalanadi. Yaratguvchi tushunchasini ifodalovchi figural ma'no shu tushunchani ifodalovchi so'zning nominal ma'nosi asosida yuzaga chiqadi. Figural ma'nosi bilan Yaratguvchi tushunchasini ifodalovchi leksikon mavzudoshlik va leksik-semantik omillar asosida guruhlanadi.

4. Figural ma'no badiiy-estetik tafakkur va badiiy-estetik ko'chim asosida vujudga keladi hamda shakllanadi. Bu poetik ko'chim bo'lib, bu ko'chimga muvofiq, ko'chma ma'noda kelgan so'zda Yaratguvchi shaxslashtiriladi.

5. Struktural jihatdan uzual teonimlar sodda tub, figural teonimlar sodda va murakkab tiplarga bo'linadi. Figural teonimlar sirasiga kiruvchi sodda teonimlar sodda tub (pari, hur), sodda yasama (pari+vash, hur+vash); murakkab teonimlar esa ikki (malaksiymo, sarvqomat) va ikkidan ortiq (*ahvolimni qilgan parishon* yoki *ey,*

la'li labing chashmai hayvoni malohat – keltirilgan murojaat shakli sifatidagi yoyiq undalma "ey" undovining konkretlashgan ifodachisi bo'lib, Yaratguvchi tushunchasini ifodalaydi) so'zlardan tashkil topadi.

6. Uzual teonimlar nominal lisoniy ma'nolari bilan omma tilida ham, kitobat tilida ham parallel qo'llanuvchi universal leksik hamda faqat kitobat tilida qo'llanuvchi kitobiy leksik qatlamdan iborat. Figural teonimlar esa badiiy nutq uslubiga xoslangan bo'lib, asosan, mumtoz she'riyat tilida qo'llanadi.

7. Universal leksik qatlam doirasiga kiruvchi teonimlarning diniy arboblar va omma nutqida qo'llanish darajasi umumiy bo'lib, ular o'zaro, deyarli, farqlanmaydi. Bu leksik qatlam diniy marosimlarda eng faol qo'llanadigan leksikon bo'lib, so'zlovchi ruhiyatini ifodalashda muhim poetik vazifa bajaradi.

8. Figural teonimlar arsenalining katta qismini nominal ma'nosi o'rin-makon, egalik, ezgulik, inson jism-a'zolari, flora va fauna olamiga mansub predmetlar nomlarini anglatuvchi so'zlar tashkil etadi. Leksik jihatdan qaysi maydonga oid bo'lishiga qaramasdan, go'zallik tushunchasi bilan bog'liq so'zlar figural teonimlar sifatida faol qo'llanadi. Chunki Yaratguvchi jismonan ham, ma'nan ham go'zal siymo sifatida tasavvur qilinadi. Badiiy-estetik tafakkur bu fazilatni yana ham go'zal ifodalaydi.

9. Figural teonimlarda ifodalangan mazmun orqali so'zlovchining Yaratguvchiga ijobiy yoki salbiy munosabatlari ham ifodalanadi. Masalan … *sarvi gulruxsora oshiq bo'lmusham, ….qotili xunxora oshiq bo'lmusham* misralarida muallif (Komil)ning Yaratguvchiga turli munosabatlari ifodalangan. Shuningdek, figural teonimlar uslubiyatida sintaktik-stilistik vosita sifatida undalma alohida ahamiyatga ega bo'lib, shu undalma vazifasida kelgan teonim orqali so'zlovchining Yaratguvchiga munosabati ham ifodalanadi. …*ey sarvi sarafroz, niholi dilraboliqtur, bari noz* jumlasida muallif (Lutfiy)ning murojaat obyektiga munosabati o'z ifodasini topgan.

10. Yoyiq tavsifiy teonimlar uyushiq holda qo'llanganda, ta'kid ma'nosi hamda hissiy-ta'siriy bo'yoq yanada kuchaytiriladi. Masalan, *Bihamdillohki, keldi dilraboyim, Azizon, ko'zi cho'lpon, to'lun oyim*. Bu keltirilgan parchada Yaratguvchi tushunchasini ifodalovchi figural teonimlar uyushgan holda ifodalangan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREE DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 AT FERGANA STATE UNIVERSITY

FERGANA STATE UNIVERSITY

SHAROFUTDINOVA NILUFAR KHURSANDOVNA

THEONYMS IN UZBEK LANGUAGE AND THEIR LINGUOPOETIC STUDY

10.00.02 – Uzbek language

DISSERTATION ABSTRACT FOR DOCTOR OF PHILOSOPHY IN PHILOLOGICAL SCIENCES (PhD)

Fergana – 2024

The theme of DSc dissertation is registered by Supreme Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan under the number B2024.2.PhD/Fil4795.

The dissertation has been prepared at the Fergana State University.

The abstract of the dissertation is posted in three (Uzbek, English and Russian (Resume)) languages on the website of the Fergana State University (www.fdu.uz) and on the website «ZiyoNet» Information-educational portal (www.ziyonet.uz)

Scientific consultant:	**Ibragimova Ekhtiyot Ismailovna** Candidate of Philological sciences, associate professor
Official opponents:	**Odilov Yorkinjon Rakhmonalievich** Doctor of Philological sciences, professor
	Abdurakhmonov Shavkatjon Ashurovich Candidate of Philological sciences, associate professor
Leading organization:	**Kokand State Pedagogical Institute**

Defense of the Dissertation will take place on "*16*" *11* 2024, at *11*⁰⁰ a.m. at a meeting of Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 under Fergana State University (Address: 105, B.Marg'iloniy Street, Fergana, 100151. Tel: (99873) 244-66-02; fax: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz.

Dissertation could be reviewed information-resource center of Fergana State University (registration number *112*). Address: 19. Murabbiylar Street, Fergana, 100151, Tel.: (99873) 244-71-28.

Dissertation abstract sent out on «*29*» *10* 2024.

(Mailing report number *46* on «*29*» *10* 2024).

S.M.Muminov
Chairman of Scientific Council Awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, professor

M.T.Zokirov
Secretary of Scientific Council Awarding scientific degree, Candidate of sciences, professor

Sh.M.Iskandarova
Chairman of Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degree, Doctor of Philological sciences, professor

INTRODUCTION (Doctor of Philosophy (PhD) Dissertation Annotation)

Relevance and necessity of the dissertation topic. In recent years, in the world linguistics new trends have emerged based on the integration of linguistics with other disciplines. In particular, the field of theolinguistics, which studies the relationship of the human factor through religion, has begun to develop. In perception of the world and expression of it the theonims in the field of theolinguistics and their use in the process of speech activity are related to human linguistic and cultural activity, and in this respect, they attract the attention of researchers and serve as an object for research in the field.

In the world linguistics, the word has been studied as a lexical-semantic category. It is considered that all the objects in the human mind have their images and representations in the language. The word is studied as a lexeme in the broadest sense, interpreted as a living form of the concept. Theonyms as words also represent the linguistic and cultural characteristics of a particular nation. Through this lexicon, the level of worldview of the people is revealed, along with it it is illustrated how and on what basis the spiritual world is formed. Analyzing the names and attributes of the theonymic objects that are perceived and understood by human beings, their experiences, and their intelligence are of great importance.

With the status of the state language given to the Uzbek language, its influence in the society increased, and the interest to linguistic research increased. Due to it the extensive scientific study of this language has been launched. Especially in the current conditions of New Uzbekistan, our honorable president is appealing that researches should be based on the third Renaissance in every field. In particular, in comprehensively expansion the scope of using the native language, it is important "to take measures to create an electronic national corpus of the Uzbek language, which includes all scientific, theoretical and practical information about the Uzbek language" [32]. Current issues such as further expanding the scope of research on the Uzbek language, determining the place of the language in all fields were put on the agenda. Within the framework of these activities, the opportunity has emerged to study the words expressing religious concepts, which have a stable place in the vocabulary of the language, the interest to study the lexicon of the mythological and religious field thematically, its nature, essence and meaning has arisen. Thereupon it is determined that "On measures to fundamentally increase the prestige and status of the Uzbek language as a state language", it is specifically stated to define "the position and prestige of the state language at the international level, and the prospects of its relations with other languages" [33]. Studying and researching the religious-mythological lexical layer present in the Uzbek language dictionary in both customary and figurative sense allows us to determine the richness of this language, the breadth of opportunities to convey ideas, as well as its place among the world languages. This shows the important theoretical and practical importance of this work, as well as defines its relevance and necessity.

---

[32] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-sonli Farmoni.

[33] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони//Халқ сўзи, 2019, 22 октябрь, №218 (2448).

The given dissertation has been fulfilled according to the requirements of the following laws as the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PD-5847 of the President of the Republic of Uzbekistan "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030" dated October 8, 2019; PD-5850 'On measures to fundamentally increase the prestige and position of the Uzbek language as a state language" dated October 21, 2019; PD-6084 'Measures for the further development of the Uzbek language and improvement of the language policy in our country" dated October 20, 2020; PD-6097 "On approval of the concept of development of science until 2030" dated October 29, 2020; PD-6108 "On measures to develop the fields of education and science in the new development period of Uzbekistan", dated November 6, 2020; PD-60 "On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026", dated January 28, 2022; PD-2789 "On measures to further improve the activities of the Academy of Sciences, organization, management and financing of scientific research", dated February 17, 2017; PD-2909 "On measures to further develop the higher education system' dated April 20, 2017; PD-4479 "Decree on wide celebration of the thirtieth anniversary of the adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan "On the State Language" dated October 4, 2019; decree 304 of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On further improvement of the system of post-secondary education' dated May 22, 2017 and tasks provided for in other regulatory and legal documents within the framework of the dissertation work.

The appropriateness of the research to the prior directions of the development of science and technologies. The research was carried out in accordance with the priority direction of the republic's science and technology development "Formation of a system of innovative ideas and ways of their implementation in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state".

Scope of study of the problem. Due to the need to understand myths and religious narratives with attention to content and essence, they were initially studied from a social point of view, while sociologists and philosophers explained the concepts expressed in the texts based on their point of view. Philosophical views were formed on this basis, each nation's own language and culture for expressing religious concepts was established. Expression of the concept of the creator was born on the basis of this culture. In the sciences of mythology and religious studies, views on the construction of the world, divine discoveries, and human knowledge were researched, explained, and interpreted[34]. Later, with the emergence of theolinguistics, opinions were expressed about the content and styles of religious-mythological texts[35]. In Turkology, the myths of the Turkic peoples, religious-

[34]Габинский Г.А. Божественное откровение и человеческое познание. – М.: изд. Политической литературы, 1989; Евсюков В.В. Мифы о мировоздании. – М.: изд.политической литературы, 1986; Тоиров В.Н. Дхаммапада и буддийская литература. – М.: изд. Восточной литературы, 1960; Путилов Б.Н. Предисловие к книге Мифы, предания, сказки хантов и манси. – М.: Наука, 1990; Редер Д.Т. Мифы и легенды древнего двуречия. – М.: Наука, 1965; Кэ Юань. Мифы древнего Китая. – М.: изд.Восточной литературы, 1987; Тойлор Э.Б. Первобытная культура. – М.: изд. политической литературы, 1989.
[35]Михайлова Ю.Н. Религиозная провославная лексика и её судьба. Дисс.канд.филол.наук// www.dissrcatcom; Тимофеев К.А. Религиозная лексика русского языка как выражение христианского

mythological views and traditions, rituals, divinity and its emergence, essence, language expression of concepts related to these views have been the subject of researches[36].

In Uzbek literature and folklore studies, mythical narratives, mythological images and characters are studied from a literary and artistic point of view. In particular, I.Mannopov showed the peculiarities of Ahmad Yassavi's wisdom[37]. T.Rahmonov's research shows the relationship between mythological and artistic thinking, the fact that mythological thinking is the beginning of artistic thinking, and the unique aspects of myth and folklore. O.Kayumov's work illustrated the mythical image of Peri in Uzbek folklore, M.Ishmuratov researched the mythological layer in the Avesta[38].

Mythonyms and theonyms in Uzbek linguistics as a phenomenon of reflection of the spirit of the people in the mind and language have been researched by N.Ulukov, T.Yuldashev, M.Umarkho'jayev, M.Galiyeva, Sh.Sultonova, Sh.Makhmaraimova, Sh.Amonturdiyeva, Sh.Yusupova[39].

мировозрения. – Новосибирск, 2001; Якимов П.А. Религиозная лексика – церковня лексика – Бибилейская лексика: к вопросу о соотношении понятий // www.cyberleninka.ru; Матей И.К. Провославная лексика в современном русском языке и языковым сознании его носителей. Автореф.дисс.канд.наук. – Воронеж, 2012; Скляревская Г.Н. Словарь провославной церковной культуры. – М., 2007; Петухова М.Е. Функциональные особенности церковной лексики с предетным значением в русском языке. Автореф.дисс.канд.наук // www.dissrcatcom; Гольберг И.М. Религиозно-проповеднический стиль современного литературного языка. Моральные концепты // www.cyberleninka.ru; Крысин Л.П. Религиозно-проповеднический стиль и его место в функционально-стилистической парадигме в современного литературного языка. // политика. Стилистика. Язык и культура: Памяти Т.Г Винокур. – М., 1996.

